

**RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA MAKTABGACHA TA'LIMDA
INTEGRAL TA'LIMiy FAOLIYAT**

O'rinova Feruza O'ljayevna

*Farg'ona davlat universiteti,
maktabgacha ta'lim kafedrası professori v.b., p.f.n.*

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha ta'lim tizimida Maktabgacha ta'limda integral loyihalarning ahamiyati, zarurati va ustuvorlik xususiyatlari haqida so'z borib, Integral ta'limiy faoliyat mazmuni ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar. Integral ta'limiy faoliyat, frontal mashg'ulotlar, Frontal mashg'ulotlar, pedagog, fasilitatsiya texnologiyalari, ijtimoiy-emotsional intellekt, muloqot, integratsiya - predmetli bilimlar.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim sohasida ommalashib borayotgan ta'limiy faoliyatlar innovatsion xarakter kasb etmoqda. Chunki maktabgacha yoshdagi bolalarga ma'naviy-axloqiy, aqliy va jismoniy tarbiya berishda innovatsion yangi texnologiya loyihalarini yaratish ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirmoqda. Dunyoda raqamli ta'lim muhitida integrallashtirilgan darsning rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga doir ta'limiy faoliyatni tashkil etishning metodik tizimini takomillashtirish, kreativ faoliyatini amalga oshirish hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ana shunday innovatsion ta'limiy texnologiyalar qatoriga integral loyihalashgan faoliyat turini kiritish zarur. Chunki bunday yondashuvga tayanib ko'p tomonlama yaxlit tasavvurlarni shakllantirish mumkin.

Integral ta'limiy faoliyat maqsadi – bu asrning bolalari uchun ijodiy, badiiy, o'yinchoq, mavjud bo'lgan faoliyat turlari bilan konseptsiya, ob'yekt



yoki hodisani keng qamrovli, ongli ravishda o'rganishdir.¹

Maktabgacha ta'lim jarayonining quyidagi fa'oliyat shakllarida integral loyihalashga asoslangan ta'limni amalga oshirish mumkin:

- markazlardagi faoliyat
- frontal mashg'ulotlar;
- ta'limiy o'yinlar;
- sayr;

Ushbu faoliyatlarda bolalarda motivatsiyaga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu o'rinda, integral mashg'ulotlar va integratsiyaning o'zaro farqi nimadan iborat degan savol tug'iladi. Integratsiyani bilimlarning o'zaro uyg'unlashuvi, bir-birini to'ldiruvchi va bir-birini tushuntiruvchi bilimlar yig'indisi, deb oladigan bo'lsak, uning tub mohiyatini aniqlash osonroq kechadi. Integratsiya ta'lim maqsadi sifatida olam tizimining alohida qismlari bog'liqligini ko'rsatuvchi bilimlarni berish emas, bolani barcha elementlari bir-biriga bog'liq yaxlit olamni tasavvur qilishiga birinchi qadamlarida o'rgatishi kerak. Integratsiya - predmetli bilimlar chegarasida yangi tasavvurlarni qabul qilish vositasi.²

Integral ta'limiy faoliyat integratsiyadan farqli ravishda yaxlit olamni tasavvur qilish bilan bir qatorda o'z-o'zini ijodiy rivojlantirish imkoniyatining yuzaga kelishidir. Bola atrof-olamni bilish jarayonida o'z imkoniyatlarini kashf etib boradi. Mustaqil ravishda o'zlashtirish qobiliyati rivojlanadi. Integral loyihalash integratsion mashg'ulotlarni boyitish va sifatli ta'lim olishni ta'minlashga xizmat qiladi. Bola iqtidorini tarbiyachi emas o'zi aniqlab, shaxsiy sifatlarini tarkib toptiradi. Uning imkoniyatlari kengayib borgan sari bilimlarni kashf etib boraveradi.

Frontal mashg'ulotlarda qo'yilgan mavzu asosan ma'lumot doirasida

¹ F.A.Boltayeva. The Essence of Integrating Innovative Technologies in Preschool Education. Pindus Journal Of Culture, Literature and ELT. 110 b <https://literature.academicjournal.io/index.php/literature/article/view/256>

² R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova "Boshlang'ich ta'limni integratsiyalashgan pedagogikasi" Toshkent – "ILM ZIYO" 2009-yil 5-6 betlar



o'rgatiladi. Boladagi individuallikni hisobga olgan holda, ulardagi ehtiyojga alohida e'tibor berish zarur. Bolaning bilim doirasi uning qiziqishlari va shaxsiy ehtiyojlari asosida vujudga keladi. Lekin bolada o'zi xohlamagan sohaga nisbatan iqtidor mavjud bo'lishi ham mumkin va uni vaqtida yuzaga chiqarish kerak. Masalan, o'zga tilni o'rganishni bola xohlamaydi, ammo bu fa'oliyatga jalb qilinganda unda ijobiy yutuqlar ko'zga tashlanishi mumkin. Bu jarayon bolaga bilimni o'zining shaxsiy ehtiyojiga aylantirilganda sifatli amalga oshadi. Bolalardagi bilimdonlikka intilish ko'pincha 6-7 yoshda aniq ko'zga tashlanadi.

Maktabgacha ta'limda integral loyihalardan barcha yosh guruhlarida foydalanish imkoni mavjud. Bunda tarbiyalanuvchilar ma'lum bir faoliyatga jalb qilinadi va uning xususiyatlarini mustaqil ravishda o'rganish uchun mikromuhit yaratiladi. Bola 6-7 yoshga kelib o'qish jarayonida murakkablashadigan axborotlarni qabul qilish va qayta ishlashga tayyor bo'ladi. Shuning uchun integrallashgan faoliyatlar boshqa ta'limiy faoliyatlardan farqli ravishda erkin tajriba tarzida o'tkaziladi. Chunki uyg'unlashgan turli yo'nalishdagi ma'lumotlardan iborat murakkab bilimlarni bolaning ongi va tafakkurida shakllanishi mustaqil tajribaga tayanadi. Integrallashgan mashg'ulot olib borayotgan tarbiyachi bunday mashg'ulot maqsadi va mohiyatini to'liq anglab yetishi zarur. Shundagina samarali natijaga erisha oladi. Xususan, bir fikrni ikkinchisi bilan aniq dalillarga tayanib bog'lab ketish talab qilinadi. Chunki bir fa'oliyat bilan shug'ullanayotgan bolani to'xtatib, ikkinchi bir fa'oliyatga o'tkazib ketib bo'lmaydi. Bu vaqtda, birinchidan, uning diqqati bo'linadi, fikrlari chalg'iydi, ikkinchidan, esa o'z mehnati mahsulini ko'rishdan mosuvo bo'lib qoladi. Bola o'zi bajargan vazifani natijasini ko'rishni xohlaydi, ma'lum bir yutuqqa erishishga intiladi. Bola uchun tarbiyachi beradigan rag'bat juda katta ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha yosh davridagi bolalarda raqobat muhitining ustunlik mohiyati ham ana shunda. Bola shaxsida o'z-o'ziga

nisbatan yuqori baho ko‘proq ko‘zga tashlanadi. Tarbiyachi-pedagog boladagi xulq-atvor bilan bog‘liq kamchiliklarga e‘tibor qaratishi, jamoada do‘stona muhit yaratishda jonbozlik ko‘rsatishi lozim.

Ja‘miyat rivojlanib borgan sayin yangi axborot-texnologiyalari takomillashib boraveradi. Shu bilan birgalikda ta‘lim berish yo‘llari ham o‘zgarib, yangi usullarni topish majburiyati tug‘iladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda dunyoqarashni shakllantirish murakkabligi bois hamisha ushbu soha vakillaridan doimiy izlanuvchanlikni talab qiladi. Integral loyihalash asosidagi ta‘limiy faoliyat yo‘nalishi esa bolalar bilish salohiyati va ijodiy sifatlarni yuksaltirishda muhim o‘rin tutishiga ishonamiz.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. F.Vahobova, Sh.Nabixonova, G.Yo‘ldosheva, Z.Rahimova, N.Demina “Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim” trenerlar uchu qo‘llanma Toshkent 2009 14, 81, 82 betlar.
2. F.O‘rinova, F.Boltayeva., Kvest texnologiyasi orqali tadqiqiy bilish va refleksiyaning rivojlantirishda tarbiyachining fasilitatorlik yondashuvi., (2024). Maktabgacha va maktab ta‘limi jurnali, 1(7). <https://doi.org/10.5281/zenodo.14260294>
3. Oljayevna O. F., Orifjonovna A. M. Maktabgacha ta‘lim tarbiyachi pedagogining pedagogik faoliyatining o‘ziga xosligi //prospects and main trends in modern science. – 2024. – T. 2. – №. 16. – C. 11-13.
4. Oljayevna O. F., Orifjonovna A. M. Oliy ta‘limda bo‘lajak tarbiyachilarning intellektual kompetentligini rivojlantirish //innovative achievements in science 2024. – 2024. – T. 3. – №. 34. – C. 30-31.
5. Oljayevna O. F. et al. Tarbiyachi pedagoglarda ijodkorlik sifatlarini rivojlantirish //Samarali ta‘lim va barqaror innovatsiyalar jurnali. – 2024. – T. 2. – №. 4. – C. 410-415.

